

XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INTERFAOL METODLAR VA ULARNING AHAMIYATI

*O'ZDJTU, 2-ingliz fakulteti,
2-kurs talabasi: Suvanova Oydin
Ilmiy rahbar: Mamatkulova Nilufar*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim tizimida mavjud bo'lgan hamda chet tili darslarida muntazam qo'llaniladigan interfaol metodlardan bir nechtasining zamonaviy ta'limdagi tutgan ahamiyati va o'rni yoritiladi.

Kalit so'zlar: interfaol, "bumerang" strategiyasi, "gugurt donalari" metodi, "kuzatish, bahslashish, ishontirish", individual, pedagogik xususiyatlar, "zamonaviy texnologiyalar"

Butun dunyo hamjamiyati anglab yetganidek 21-asr "zamonaviy texnologiyalar" asri deb ataldi, bu esa o'z navbatida insonlarning deyarli barcha qatlamining ham ongiga ta'sir etmasdan qolmaydi. Aynan shu tufayli nafaqat o'quvchi, talabalarni balki o'qituvchilar yordamida butun bir darsni mazmunli hamda sifatli o'tkazish, rivojlangan texnika va elektronikalardan samarali foydalangan holda unumli dars jarayonlarini tashkil etish davr talabiga aylanmoqda. Bundan tashqari aynan shu texnologiyalar rivojlanishi bilan bir qatorda xorijiy tillar ahamiyati ham oshib, ortib bormoqda butun dunyoda, shu jumladan bizning davlatimiz hukumati tomonidan bu sohaga alohida e'tibor qaratilib, o'qituvchilar tomonidan ham bir qancha interfaol metodlar ishlab chiqilmoqda sababi, ular darsni qiziqarli o'tkazish bilan birgalikda o'quvchilardagi boshqa ko'nikmalarni ham rivojlantira oladi, shuningdek qisqa vaqt ichida ko'plab narsalarni o'zlashtirish imkonini yarata olishi bilan ham e'tiborga molik.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, zamonaviy texnologiyalar har bir o'quvchilarni dars mashg'ulotlaridan tashqari ularni mustaqil izlanishga, turli manbalar yordamida matnlar bilan ishlashga, ularni yodda saqlashga, fikrlarini ham mustaqil bayon etishga undaydi shu bilan birgalikda yordam beradi desak ham mubolag'a bo'lmaydi misol uchun, birgina "bumerang" strategiyasini oladigan bo'lsak ushbu metod bugungi ta'limdagi talabalarni guruh bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga, mustaqil izlanishlar olib borishga yordam beradigan ahamiyatli strategiyadir. Bundan tashqari, suhbat-munozara shaklida amalga oshiriladigan ushbu metod individual, juftlik shakllarida ham bo'lishi mumkin. Boshqa interfaol metodlar kabi ushbu strategiya ham muayyan bir qat'iy tizimda olib boriladi. Ya'ni, avval:

Dars jarayonida ma'lum o'quvchilardan iborat bir necha guruhlariga ajratiladi hamda ularga vazifa sifatida muayyan bir mavzu tanlab beriladi;



Guruhlar dars jarayonidan tashqarida mustaqil izlanish olib borgandan so'ng, kelgusi dars mobaynida jamoa qayta tiklanadi.



Dars mashg'ulotida kichik guruhlardagi har bir o'quvchi o'z ma'lumotlari bilan bo'lishgandan so'ng, ularni mustahkamlash maqsadida og'zaki yoki yozma savol-javob o'tkaziladi;



O'qituvchi esa ularni qay darajada o'zlashtirganligini aniqlash uchun ball tizimi asosida baholaydi hamda guruh a'zolari o'rtasida teng taqsimlanadi.

Ushbu texnologiyaning samarali jihatlaridan biri bu o'sib kelayotgan yosh avlodga guruh bo'lib ishlash, shuningdek ularga boshqalarning fikrini tinglay olish, ularning dunyoqarashi va nutqini hurmat qilishni o'rgatadi. Bu esa o'z navbatida ham tarbiyaviy jihatdan, qolaversa ta'limiy jihatdan o'quvchini o'stiradi ya'ni ular bilim olishda faqatgina dars jarayonida aytilgan hamda o'rgatilgan narsalarga bog'lanib qolmasdan, mustaqil izlanishlar olib borish orqali ko'proq bilim olishga imkon yaratadi. Ammo ushbu metoddan to'g'ri foydalana olmagan o'quvchilar orasida buning salbiy jihatlari ham kuzatilishi mumkin ya'ni, guruh bilan ishlash mobaynida ba'zi talabalar o'zlari izlanish olib bormasdan ko'rish holatlari ham bo'ladi hamda boshqa talabalar orqasiga "berkinishadi". Buning oldini olish uchun har bir talaba strategiya talablariga amal qilishi hamda o'qituvchi ham iloji boricha nazorat olib borishi lozim.

Yana bir shu kabi zamonaviy metodlardan biri bu "gugurt donalari" strategiyasidir. Ushbu metod ham interfaol yo'nalishning asosiy namunasi bo'lib, o'qituvchi va talabaning o'zaro munosabati asosida o'tkaziladi hamda boshqa metodlar kabi individual, juftlik shuningdek guruh sifatida ham amalga oshirilishi mumkin. Ushbu strategiyaning ham muayyan tartiblari bo'lib, ularga qat'iy amal qilish talab etiladi va ushbu ketma-ketlikda boshqarish mumkin (individual tarz uchun):

a. Dastlab o'qituvchi tomonidan yangi mavzu tushuntiriladi, so'ngra uni mustahkamlash uchun har bir o'quvchiga o'zining ixtiyoriga bog'liq holda gugurt donalari yoki oddiy cho'p tarqatiladi;

b. Keyin talaba yoki o'quvchilar olgan miqdoridagi donalarga qarab shu sondagi tushunchalarga izoh berishadi yoki shuncha ma'lumot aytib o'tishadi.

Shuningdek bu strategiyani nafaqat yangi mavzu uchun balki o'tilgan mavzular yuzasidan takrorlash sifatida ham qo'llash mumkin, ammo har bir qatnashuvchidan gugurt donalariga teng miqdorda tayanch tushunchalar keltirib o'tish talab etiladi va bu donalar sonining oshishiga qarab o'zgarib boradi. Bunga qo'shimcha tarzda ushbu texnologiya o'quvchilardan aniqlikni va zukkolikni, dars davomida e'tiborli bo'lishni talab etadi sababi, boshqalar tomonidan aytilgan qoida va ma'lumotlarni takrorlashnoto'g'ri hisoblanib, o'qituvchi tomonidan "jarima"ga sabab bo'lishi mumkin. "Gugurt donalari" metodi barcha yoshdagi o'rganuvchilar uchun ham birdek qiziqarli va foydali bo'lishi aniq chunki ushbu strategiya noan'anaviy bo'lib, hozirgi kunda ko'plab pedagoglar tomonidan muntazam foydalanib kelinmoqda.

Guruh bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etgan metodlardan yana biri bu "KBI" ya'ni Kuzatish, bahslashish, ishontirish dir. Ushbu metod nafaqat guruhda ishlashni balki, boshqalar nutqini eshitishni ularga qarshi o'zlarida ham reaksiya hosil qilib, o'z fikrini shakllantirgan holda mustaqil bayon qilishni, liderlik ko'nikmasini shakllantirish kabi bir qancha foydali jihatlarga egadir. Ushbu strategiyani ham amalga oshirishda bir necha qadamlar mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

Daslab, o'qituvchi tomonidan kichik-kichik guruhlar tashkil etiladi, o'z xohishlariga binoan nom tanlanishi ham mumkin;



Har bir guruh shug'ullanishi uchun ularga mavzu nomlari bo'lib beriladi va ular ustida ishlanadi;



Doskada guruhlar o'z mavzulari yuzasidan namoyish o'tkazishgandan so'ng, qolgan o'quvchilar tomonidan ularga turli qarshi savollar beriladi, guruhning vazifasi esa ularni o'z fikrlariga ishontirish va asoslab berishdan iboratdir.

Qo'shimcha tariqasida ham shuni keltirib o'tish kerakki, ushbu texnologiyada har bir guruh o'zlarining yondashuvlarini to'g'ri ekanligiga boshqa talabalarni ishontirishlari zaruriy hisoblanadi. Qolaversa. Bu sinfxonada bahs-munozara yoki debat shaklida o'tkazilib, o'quvchilarni mantiqiy fikrlash qobiliyatini ham ancha-muncha o'stira olishi dalillar yordamida isbotlangan. Nega? Sababi shundaki, guruhlar namoyishidan so'ng, ularning miyasiga turli insonlar, turli dunyoqarashlar tomonidan "aqliy hujum" bo'ladi bu esa ularni o'z fikrini mustahkam egallashga va chuqurroq kirib borgan holda, ko'proq ma'lumotlar topishga undaydi. Shu bilan birgalikda strategiyaning asosiy talablaridan biri ham xushfe'llikdir, agar ushbu sifat yo'q bo'lsa

guruhlar tomonidan turli nizolar va kelishmovchiliklar kelib chiqishi kuzatiladi, buning oldini olish uchun metod talablariga qat'iy amal qilish barcha uchun eng to'g'ri yo'ldir.

Yuqorida ta'kidlangan metodlardan to'g'ri va tartibli foydalana olish shuningdek, yangidan –yangi metodlarni qo'llash dars sifatini yanada yaxshilaydi. Qisqa vaqtdan ham unumli foydalana olish imkoniyatini yaratish bilar birgalikda ko'p narsa o'rganish imkoniyatini ham bera oladi. Hozirgi zamon talabi ham aynan shu kabi maqsadlardan iboratligi uchun shu va shu kabi metodlar ushbu talabga to'liq javob bera oladi, ayniqsa, bo'lajak pedadoglar dars davomida ham o'zlari uchun kerakli malaka va ko'nikmalarni rivojlantirib, doskada namoyish etish, nutq so'zlash o'z fikrini turli dalillar bilan ifodalay olish sifatlarini ham egallay oladi. Shu jumladan, so'nggi keltirilgan metod ham o'quvchilarni hayotda o'z o'rnini toppish yo'lida faollik ko'rsatishga rag'batlantirishi, ulardagi yetakchilik yoki sardorlik sifatlarini shakllantirishga ham katta xizmat ko'rsata olishi bilan ahamiyatlidir.

Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar:

Interfaol metodlar mohiyati va qo'llanilishi. D.Ro'ziyeva, M.Usmonboyeva,
Z.Holiqulova

J.Jalolov. Chet tili o'qitish metodikasi

Q.O.Saparova, I.U.Minniqulov, lingvistik tahlil metodlari

Sh.K.Shayakubov, R.X.Ayupov. Interfaol ta'lim usullari
staff.tiame.uz

“ Science and Innovation” international scientific journal